


O'zbekistonlik muxlislar uchun qo'llanma (FIFA 2026)

Xyustondagi O'zbek Amerika Jamiyati sizni Xyustonda q'utlaydi.

uzbekamericansh.org



Xyuston haqida

Xyuston AQShdagi eng yirik va eng xilma-xil shaharlardan biridir. U xalqaro madaniyati, ajoyib taomlar sahnasi va mehmondo'st muhiti bilan mashhur. Shahar energetika, tibbiyot va kosmik tadqiqotlar markazi hisoblanadi va Space Center Houston joylashgan.

Bu yerga kelgan mehmonlar dunyoning turli burchaklaridan kelgan odamlar bilan uchrashadi, shuningdek, kuchli musulmon jamoasi mavjud — bu esa halal restoranlar va masjidlarni topishni osonlashtiradi.

Texas haqida

Texas — AQShning yirik va mashhur shtati bo'lib, "janubiy mehmondo'stlik", katta shaharlar va o'ziga xos madaniyati bilan tanilgan. Odamlar odatda do'stona va ochiqko'ngil bo'lishadi, siz tez-tez "Howdy!" degan salomlashuvni eshitishingiz mumkin.

Texas quyidagilari bilan mashhur:

- Houston, Dallas va Austin kabi katta shaharlar
- BBQ va an'anaviy Amerika taomlari
- Issiq ob-havo va keng ochiq landshaftlar

Qisqa ma'lumotlar

- **Til:** Ingliz tili
- **Valyuta:** AQSh dollari (\$)
- **Hayot tarzi:** Oddiy, do'stona va erkin
- **Ob-havo:** iyun–iyul issiq va nam (30–38°C)

Nima olib kelish kerak:

- Yengil kiyimlar
 - Quyoshdan himoya vositalari
 - Suv idishi
 - Qulay oyoq kiyimlar
-



FIFA Jahon Chempionati 2026 – Xyuston o‘yinlari

Stadion: NRG Stadium

Manzil: 1 NRG Pkwy, Houston, TX 77054

NRG Stadium — Xyuston (Texas)da joylashgan ko‘p maqsadli sport va ko‘ngilochar majmua. U Houston Texans jamoasining uyi sifatida tanilgan va NRG Park majmuasining muhim qismi hisoblanadi. Stadion yil davomida turli tadbirlarni o‘tkazish imkonini beradigan ochiladigan tomga ega NFLdagi birinchi stadionlardan biridir.

Asosiy ma’lumotlar

- Ochiq sanasi: 24-avgust 2002
 - Sig‘imi: taxminan 72,200 (80,000 gacha kengaytirilishi mumkin)
 - Asosiy jamoa: Houston Texans (NFL)
 - Maydon qoplamasi: Matrix Turf
 - Egasi: Harris County Sports and Convention Corporation
-

Guruh bosqichi o‘yinlari

- 14-iyun 2026 – Germaniya DE vs Kyurasao CW
 - 17-iyun 2026 – Portugaliya PT vs DR Kongo CD
 - 20-iyun 2026 – Niderlandiya NL vs Shvetsiya SE
 - 23-iyun 2026 – Portugaliya PT vs O‘zbekiston UZ
 - 26-iyun 2026 – Kabo-Verde CV vs Saudiya Arabistoni SA
-

Pley-off o‘yinlari

- 29-iyun 2026 – 1/32 final
 - 4-iyul 2026 – 1/16 final
-

Qisqa eslatmalar

- Xyuston jami 7 ta o‘yin mezboni bo‘ladi (5 guruh + 2 pley-off)
- O‘yinlar asosan tush vaqtida (mahalliy vaqt bilan 12:00 atrofida)
- Turnir 11-iyun 2026 dan 19-iyul 2026 gacha davom etadi



Halol restoranlar va oziq-ovqat do'konlari

- **Aga's Restaurant & Catering**
11842 Wilcrest Dr, Houston, TX 77031
Pakistani / South Asian halal cuisine
- **Fadi's Mediterranean Grill**
12360 Westheimer Rd, Houston, TX 77077
Lebanese / Mediterranean buffet
- **Dimassi's Mediterranean Buffet**
8236 Kirby Dr, Houston, TX 77054
Mediterranean buffet
- **Cafe Caspian**
12126 Westheimer Rd, Houston, TX 77077
Persian cuisine
- **Pasha Restaurant**
2327 University Blvd, Houston, TX 77005
Turkish / Mediterranean cuisine
- **Kasra Persian Grill**
9741 Westheimer Rd, Houston, TX 77042
Persian grill cuisine
- **Istanbul Grill & Deli**
5711 Hillcroft Ave, Houston, TX 77036
Turkish street food / halal fast food
- **Sayad Mediterranean Grill**
5211 Richmond Ave, Houston, TX 77056
Lebanese seafood & grill
- **Cafe Lili**
5757 Westheimer Rd, Houston, TX 77057
Lebanese café cuisine
- **Afghan Village**
11820 Bissonnet St, Houston, TX 77099
Afghan cuisine
- **Empire Turkish Grill**
11322 Westheimer Rd, Houston, TX 77077
Turkish grill cuisine
- **The Halal Guys**
6609 Main St, Houston, TX 77030
American halal street food
- **Sultan Pepper**
2400 S Kirkwood Rd, Houston, TX 77077
Lebanese fast casual
- **Nazif's Grill**
5500 Richmond Ave, Houston, TX 77056
Turkish / Mediterranean fusion
- **Arpi's Phoenicia Deli**
12141 Westheimer Rd, Houston, TX 77077
Mediterranean deli
- **Cafe Mawal**
5930 Westheimer Rd, Houston, TX 77057
Lebanese cuisine & hookah lounge
- **Bismillah Restaurant**
5210 Hillcroft Ave, Houston, TX 77036
Pakistani / Indian halal cuisine
- **Tempura Halal Indo-Pak Grill**
8520 Main St, Houston, TX 77025
Indo-Pak halal buffet
- **Avesta Persian Grill**
11805 Westheimer Rd, Houston, TX 77077
Persian cuisine
- **Mezban Restaurant**
11900 Bellaire Blvd, Houston, TX 77072
Indian / Pakistani buffet
- **Phoenicia Specialty Foods**
12141 Westheimer Rd, Houston, TX 77077
Mediterranean / Middle Eastern deli & market

Muhim eslatma: Ushbu qo'llanmada keltirilgan halol restoranlar haqidagi ma'lumotlar internet manbalari va ochiq ro'yxatlardan yig'ilgan.

Restoranlarning menyusi, egasi yoki halol sertifikati vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin. Shuning uchun borishdan oldin har bir restoran bilan bevosita bog'lanib, ularning hozirgi halol variantlari va mavjudligini tasdiqlab olish tavsiya etiladi.



NRG Stadium atrofidagi masjidlar

- **Medical Center Islamic Society (MCIS)**
2222 Mansard St, Houston, TX 77054
- **SGH River Oaks Islamic Center**
3110 Eastside St, Houston, TX 77098
- **Ibrahim Islamic Center & Mosque**
7563 South Fwy, Houston, TX 77021
- **AL NOOR MOSQUE**
6443 Prestwood Dr, Houston, TX 77081
- **Masjid Salah Ad-Deen**
5645 Hillcroft St #305, Houston, TX 77036
- **Masjid-ul Mumineen**
8875 Benning Dr, Houston, TX 77031
- **The Islamic Institute & Houston Blue Mosque**
9301 W Bellfort Ave, Houston, TX 77031



Ko'rishga arziydigan joylar

Shahar markazi va diqqatga sazovor joylar

- **Downtown Houston (Xyuston markazi)**

Osmono'par binolar, restoranlar, tungi hayot va piyoda yurish joylari

Shahar manzarasini tomosha qilish va kechki sayrlar uchun eng yaxshi hudud

- **Discovery Green**

Tadbirlar, food trucklar va konsertlar o'tkaziladigan zamonaviy shahar parki

Kunduzi dam olish uchun juda yaxshi joy

- **Buffalo Bayou Park**

Chiroyli piyoda va velosiped yo'laklari, shahar manzarasi bilan

Fotosuratlar va quyosh botishini tomosha qilish uchun mashhur

Kosmos va ilm-fan maskanlari

- **Space Center Houston**

NASAning rasmiy tashrif markazi

Raketalar, astronomlar ko'rgazmalari va kosmik missiyalarni ko'rish mumkin

Muzeylar va madaniyat

- **Houston Museum District**

Dunyo darajasidagi muzeylar bir hududda joylashgan

- **The Museum of Fine Arts Houston**

AQShdagi eng yirik san'at muzeylaridan biri

- **Houston Museum of Natural Science**

Dinozavrlar, kosmos va qimmatbaho toshlar bilan mashhur muzey

Savdo va hayot tarzi

- **The Galleria**

Texasdagi eng katta savdo markazi

Luks brendlar, food court va muz maydonchasi mavjud

- **River Oaks District**

Yuqori darajadagi (luxury) do'konlar va restoranlar joylashgan hudud



Xyustonda transport

Xyuston katta va keng tarqalgan shahar bo'lgani uchun transport siz boradigan joyga qarab farq qiladi. Mehmonlar odatda metro, avtobus va ride-app (Uber/Lyft) xizmatlaridan foydalanishadi.

METRO Rail (sayohlar uchun eng yaxshi variant)

METRO Rail tomonidan boshqariladi

- 3 ta asosiy liniya: Red, Green, Purple
- Red Line — mehmonlar uchun eng muhim yo'nalish
- Muhim joylarni bog'laydi:
 - NRG Stadium
 - Downtown Houston (markaz)
 - Museum District
 - Texas Medical Center

✓ FIFA muxlislari uchun eng yaxshi variant

✓ Arzon va oson

✓ Tez-tez ishlaydi (ayniqsa o'yin kunlari)

Shahar avtobuslari (arzon, lekin sekin)

METRO Bus System tomonidan boshqariladi

- Juda arzon (\$1–2 bir safar uchun)
- Xyustonning deyarli hamma hududlarini qamrab oladi
- Tirbandlik sababli sekin harakatlanadi
- Mahalliy hududlarda yurish uchun qulay

✓ Budget sayohatchilar uchun yaxshi

✗ O'yinlarga shoshayotganlar uchun ideal emas

Uber / Lyft (eng qulay variant)

- Xyustonda eng tez harakatlanish usuli
- NRG Stadiumga borishda juda qulay
- FIFA o'yin kunlarida narxlar oshishi mumkin
- Guruhlar yoki kechki safarlar uchun eng yaxshi

✓ Sayyohlar uchun eng tavsiya etiladigan variant

Aeroport transporti

Xyustonda 2 ta asosiy aeroport bor:

- George Bush Intercontinental Airport (IAH)
- William P. Hobby Airport (HOU)

Variantlar:

- METRO avtobus (eng arzon, lekin sekin)
 - Uber/Lyft (eng tez va qulay)
 - Taksi xizmatlari (terminalda mavjud, belgilangan narx)
-

Boshqa variantlar

- Downtown va park hududlarida velosiped ijarasi
 - Downtown, Museum District va Discovery Green atrofida piyoda yurish
 - Suburblardan Park & Ride avtobuslari (mahalliyar uchun)
-

FIFA 2026 sayohat tavsiyalari (muhim)

- NRG Stadiumda o'yin kunlari parking cheklangan bo'ladi
- Eng yaxshi variant: METRORail Red Line + qisqa piyoda yurish
- O'yin kunlarida Uber narxi oshadi
- Doim erta yo'lga chiqing (tirbandlik kuchli bo'lishi mumkin)



NRG Stadium atrofidagi mehmonxonalar

- **Holiday Inn Houston S – NRG Area / Medical Center**
8111 Kirby Dr, Houston, TX 77054
Full-service hotel, walking distance to stadium
- **Holiday Inn Houston Near NRG / Medical Center**
8111 Kirby Dr, Houston, TX 77054
Closest hotel to stadium, very popular on event days
- **Wyndham Houston Near NRG Park / Medical Center**
8686 Kirby Dr, Houston, TX 77054
Modern hotel, near MetroRail access
- **Courtyard Houston Medical Center / NRG Park**
7702 S Main St, Houston, TX 77030
Comfortable Marriott hotel, good for families
- **SpringHill Suites Houston Medical Center / NRG Park**
1400 Old Spanish Trail, Houston, TX 77054
Spacious suites, good for groups
- **Residence Inn by Marriott Houston Medical Center / NRG Park**
7807 Kirby Dr, Houston, TX 77030
Apartment-style rooms, long stays
- **Hampton Inn & Suites Houston Medical Center / NRG Park**
1715 Old Spanish Trail, Houston, TX 77054
Free breakfast, very popular for visitors
- **Comfort Suites near Texas Medical Center – NRG Stadium**
1055 McNee Rd, Houston, TX 77054
Budget-friendly option close to stadium
- **Hotel Ylem**
8080 S Main St, Houston, TX 77025
Boutique hotel near Medical Center
- **Extended Stay America – Houston Medical Center / NRG Park**
1303 La Concha Ln, Houston, TX 77054
Affordable long-stay option with kitchen
- **Quality Inn & Suites NRG Park – Medical Center**
2364 S Loop W, Houston, TX 77054
Budget hotel near stadium highway access
- **Crowne Plaza Houston Near Medical Center / NRG Area**
8686 Kirby Dr, Houston, TX 77054
Business-friendly hotel near stadium



Sayohat maslahatlari

SIM karta va internet qo'llanma (Xyuston)

SIM kartani qayerdan olish mumkin

SIM kartani aeroportga qo'ngandan keyin yoki shahar do'konlaridan osongina olish mumkin:

- AT&T do'konlari (Xyustonda eng yaxshi qamrov)
 - Savdo markazlari, aeroportlar va alohida do'konlarda mavjud
- T-Mobile do'konlari (arzonroq tariflar, yaxshi shahar qamrovi)
- Verizon do'konlari (kuchli tarmoq, lekin biroz qimmatroq)
- Aeroport kiosklari:
 - George Bush Intercontinental Airport (IAH)
 - William P. Hobby Airport (HOU)

Sizga kerak bo'ladi:

- Pasport
- Mehmonxona manzili (ba'zan talab qilinadi)

Eng arzon internet paketlar (2026 taxminlari)

- T-Mobile prepaid: ~\$40–50/oy (cheksiz internet)
- AT&T prepaid: ~\$45–60/oy (barqaror va keng qamrov)
- Mint Mobile (onlayn eSIM): ~\$15–30/oy (budget variant)
- Sayyohlar uchun eSIM (Airalto, Holafly): oson o'rnatiladi, do'konga borish shart emas

Sayyohlar uchun eng yaxshi variant: T-Mobile yoki eSIM

Xyustonda bepul Wi-Fi joylari

Stadion va jamoat joylari:

- NRG Stadium → cheklangan match-day Wi-Fi
- Discovery Green → bepul Wi-Fi
- Downtown Houston → kafelar va jamoat hotspotlari

To'lov va pul bo'yicha maslahatlar

Valyuta:

- AQSh valyutasi = AQSh dollari (USD \$)
- Naqd pul ishlatiladi, lekin kartalar afzal

Karta yoki naqd pul

Kartadan foydalaning:

- Mehmonxonalar
- Restoranlar
- Xaridlar
- Uber/Lyft

Naqd pul olib yuring:

- Kichik food trucklar
- Tips (choychaqa)
- Ko'cha sotuvchilari
- Favqulodda holatlar

Eng yaxshi variant: Visa yoki Mastercard

Tipping madaniyati (Juda muhim)

AQShda choychaqa berish majburiy/ixtiyoriy (kursatilgan xizmatning sifatiga qarab) hisoblanadi:

- Restoranlar: 15–20%
- Taksi/Uber: \$1–3 yoki ~10%
- Mehmonxona xodimlari: \$2–5
- Tozalash xizmati: \$2–5/kecha
- Sartaroshlar: 15–20%

Tipping bermaslik hurmatsizlik hisoblanadi

Favqulodda va xavfsizlik ma'lumotlari

Favqulodda raqam:

- 911 (politsiya, yong'in, tez yordam)
-

NRG Stadium yaqinidagi shifoxonalar

- Texas Medical Center → dunyodagi eng yirik tibbiyot markazi
 - Houston Methodist Hospital
 - Ben Taub Hospital (travma markazi)
-

Xavfsizlik maslahatlari

- Xyuston odatda xavfsiz, lekin:
 - Kechasi bo'sh ko'chalardan saqlaning
 - Turistik hududlarda qoling
 - Olomon ichida narsalaringizni ehtiyot qiling (ayniqsa o'yin kunlari)
 - Kechasi uzoq masofaga piyoda yurish o'rniga Uber/Lyft ishlatib
-

Yo'qotish yoki favqulodda holatlar

- Pasport yo'qolsa → darhol elchixona bilan bog'laning
 - Buyum yo'qolsa → stadion lost & found yoki Uber ilovasini tekshiring
 - Favqulodda yordam → mehmonxona resepsioni yoki 911
-

FIFA 2026 xavfsizlik tavsiyasi

- NRG Stadiumda katta olomon bo'ladi
- O'yindan 2–3 soat oldin yetib boring
- Xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qiling